

ZAMONAVIY KOREYS TILIDA IJOBIY VA SALBIY EMOTSIYANI IFODALOVCHI UNDOV SO‘ZLAR

Aslonova Husnida Botirjon qizi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Koreys tili nazariyasi va amaliyoti kafedrası o‘qituvchisi

email: aslonovahusnida@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqola zamonaviy koreys tilida so‘zlovchining emotsiyasini ifodalashda foydalaniladigan undov ijobiy va salbiy undov so‘zlar tahliliga bag‘ishlanadi. Unda koreys tilida emotsional bo‘yoqdorlikka ega gaplarning qanday yasalishi, nimalar asosida yasalishi va qanday ma‘no anglatishi chuqur tahlil qilinadi. Koreys tilida emotsional bo‘yoqdorlikni ifoda etuvchi undov so‘zlar va ularning turlari, gapda joylashish o‘rni ko‘rib chiqiladi. Misollar yordamida tahlil natijalari analiz qilinadi. Shu qatorda, koreys tilidagi emotsional bo‘yoqdorlikka ega gaplardagi undov so‘zning o‘zbek tilida aynan ekvivalenti bor yoki yo‘qligi tahlil qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:** emotsiya, bo‘yoqdorlik, undov gap, undov so‘z, salbiy emotsiya, ijobiy emotsiya.*

***Annotation:** This scientific article is devoted to the analysis of positive and negative exclamatory words used to express the emotion in modern Korean. It deeply analyzes how to make sentences with emotional coloring in Korean, what they are based on, and what their meaning is. By this scientific article we analyzed exclamatory words expressing emotional coloring in the Korean language, their types, and their place in the sentence. The results of the analysis are analyzed with*

the help of examples. Additionally, it is analyzed whether the exclamation word in Korean language has an exact equivalent in Uzbek language or not.

Keywords: *emotion, coloring, exclamation word, exclamatory sentence, negative emotion, positive emotion.*

Аннотация: *Данная научная статья посвящена анализу положительных и отрицательных восклицательных слов, используемых для выражения эмоции в современном корейском языке. В нем глубоко анализируется, как составлять предложения с эмоциональной окраской на корейском языке, на чем они основаны и в чем их смысл. В данной научной статье мы проанализировали восклицательные слова, выражающие эмоциональную окраску в корейском языке, их виды и место в предложении. Результаты анализа анализируются с помощью примеров. Дополнительно анализируется, имеет ли восклицательное слово в корейском языке точный эквивалент в узбекском языке.*

Ключевые слова: *эмоция, окраска, восклицательное предложение, восклицательное слово, отрицательная эмоция, положительная эмоция.*

KIRISH

Inson emotsiyasini tushunish qiyin bo'lsa-da, yuzaga kelgan reaksiya yordamida kuzatuvlar bilan qisman anglab yetish mumkin. Inson emotsiyasini tashqariga chiqarmasdan yashirishi mumkin, biroq yuz ifodasidan u insonning hozirgi vaziyatdagi emotsiyasini taxmin qilsa bo'ladi. Emotsiya insonning yuz ifodasi, terga botishi, yuz rangining o'zgarishi, shuningdek, til orqali namoyon bo'lishi mumkin. Bular orasida til inson emotsiyasini eng aktiv ravishda ifoda etuvchi vosita bo'lib, e'tiborni tortadi. Yuz ifodasining o'zgarishi, tana rangining qizarishi yoki oqarishi singari tashqi o'zgarishlar emotsiya emas, balki boshqa narsa sababli ham bo'lishi mumkin, ammo to'g'ridan to'g'ri til orqali ifoda etilgan emotsiya aniq va haqqoniy hisoblanadi. Zamonaviy koreys tilida so'zlovchining emotsiyasini ifodalash uchun undov so'z, undov kesimlik qo'shimchasidan shuningdek, emotsiyani bildiruvchi

sifatlardan ham keng foydalaniladi. Ushbu ilmiy ishimizda zamonaviy koreys tilida ijobiy va salbiy emotsiyani ifodalovchi undov soʻzlarni oʻrganib chiqamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

“Undov soʻzlar mustaqil maʼnoli soʻzlar bilan yordamchi soʻzlar orasidagi bir kategoriya boʻlib, ularda leksik maʼno grammatik maʼno bilan dialektik birlikni tashkil qiladi. Undov soʻzlar nutqda koʻpincha modal maʼnoni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu jihatdan undov soʻzlar yuklamalarga yoki modal soʻzlarga oʻxshab ketadi. Undov soʻzlar fonetik shakllanishi, morfologik butunligi, ekspressivligi va maxsus ohangi bilan, egalik kelishigi, shaxs, zamon kabi grammatik maʼnoni anglatmasligi bilan boshqa soʻzlardan ajralib turadi” [1].

Koʻplab koreyalik tilshunoslar undovlarni uch guruhga boʻlishadi:

- 1) 감정감탄사 emotsional undovlar;
- 2) 의지감탄사 xohish-istak undovlari;
- 3) 입버릇 및 더듬거림 rasm-odat undovlari [1].

Ushbu undov soʻzlaridan 감정감탄사 emotsional undovlarni ilmiy ishimizda tahlil qilib chiqamiz.

Koreyalik mashhur tilshunoslardan biri Pyong Shi (평시) tadqiqotlari natijasidan kelib chiqib 감정적 감탄사 his-hayajon undov soʻzlarni quyidagicha taqsimlaydi:

1-jadval:

Ijobiy va salbiy his-hayajon undov soʻzlari [2]

	긍정적 표현	부정적 표현	긍정적 표현과 부정적 표현 모두 포함
--	--------	--------	----------------------------

<p>감정적 감탄사</p>	<p>아차, 아카사니, 어기 여차, 옹지, 우와, 참</p>	<p>시, 아뿔싸, 아야, 아하,악, 알라, 앓, 애계, 애재,애해, 앵, 어마, 어머, 어 뿔싸, 어어, 어일싸, 어허,어휴, 억, 엉, 예, 에그,에끼, 에라, 에이, 에이그, 에잇, 에쿠, 에크, 에키,에헤, 에후, 엉, 앵이, 예,예라, 예이, 요런, 우, 움, 이끼, 이야, 이키, 자, 제,쯏, 아뿔싸, 하하, 햄, 어 뿔싸, 허허, 험, 헤</p>	<p>아, 아아, 아이, 아이 고 , 야, 알라차, 어, 어이구, 얼씨구, 하이 고, 허, 호, 흥</p>
--------------------	---	---	---

Shuningdek, Pyong Shi (평시) koreys tilidagi 감정적 감탄사 his-hayajon undov so‘zlarni ma’nosiga ko‘ra ikki guruhga ajratadi:

1)Ijobiy emotsiyani ifodalovchi undov so‘zlar

1. *아유, 고맙기도 하지.*

(Vo-oy,arzimaydi.)

2. *아이고, 마침 잘 왔네.*

(Vo-oy,yaxshiyam keldingiz.)

3. *아이구, 마이클, 오래간만입니다.*

(Vo-oy, Maykl, ko ‘rishmaganimizga ham ancha bo ‘ldi.)

4. *야, 정말 좋은 세상이다.*

(Vaay, chindan ham hayot go ‘zal.)

5. *아하, 그 사람이 그래서 화를 냈구나!*

(A-ha, u kishi shuning uchun jaxl qilipti-da!)

6. 어, 그것 참 좋군.

(O-o, juda yaxshi.)

7. 어, 저기 빈자리가 있네요.

(O-o, ana u yerda bo'sh joy bor ekan.)

8. 아, 이제 알겠어요.

(A-a, endi tushundim.)

9. 아아, 그렇구나.

(A-a, shunday ekan-da)[2].

2)Salbiy emotsiyani ifodalovchi undov so'zlar

1. 가. 아유, 무거워 죽겠네.

(Vaay, og'irligidan o'lib qoley deyapman.)

나. 아이, 일어나기 귀찮아.

(A-ay, turgim kelmayapti.)

다. 아이고, 답답하군요.

(Vo-oy, siqilib ketyatgandirsiz.)

라. 아이구! 이렇게 분할 수가 있나!

(Voy, shunchalik xafa bo'lish mumkinmi?)

마. 어, 속상해!

(Oh, yuragim ezilib ketdi!)

2. 가.a. 아이고, 허리야.

(Voy, belim.)

b. 콜록콜록, 아이구, 목 아파.

(Voy, tomog'im og'iyapti)

나.a. 아이고, 아이고, 그분이 돌아가시다니요.

(Voy Xudoyim, U kishini vafot etdi dedingizmi)

b. *아이구, 아이구, 어미나!*

(Voy, voy, oyijon!)[2].

Zamonaviy koreys tilida soʻzlovchining emotsiyasini ifodalashda qoʻllaniladigan undov soʻzlarni oʻrganishda turli xil metodlardan foydalanildi. Tilshunoslikdagi undov soʻzlar ustida shu kungacha olib borilgan tadqiqot ishlarini chuqur tahlil qilish, olingan xulosalar yordamida yangi misollar yaratish, koreys va oʻzbek tillarida ijobiy va salbiy emotsiyani ifodalovchi undov soʻzlarni topish va ularni ikki til boʻyicha qiyoslash, chogʻishtirish, ekvivalentini topish metodlari qoʻllanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yuqorida keltirilgan mavzuga doir adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib quyidagi natijalarga keldik.

Undov gap soʻzlovchi tomonidan oʻz his-tuygʻularini, yoki munosabatlarini ifodalash uchun ishlatadigan jumla sifatida taʼriflagan. Undov gapida “hayratlanish” soʻzlovchining psixologik xulq-atvori yoki munosabatini bir soʻz bilan ifodalaydi. Xususan, his-hayajon degani soʻzlovchi vaziyatni faktlar, kuzatishlar, tajribalar, xulosalar va tasavvurlarni his-tuygʻu bilan ifodalaganiga aytiladi. Undov soʻz funksional tomondan boshqa soʻzlar bilan hech qanday aloqa bogʻlamaydi. U soʻzlovchining ichki holatini yoki aqliy harakatini ifodalash yoki soʻzlovchining niyatini bildirish uchun kontekstga bogʻliq holda qoʻllanadigan, hech qanday mansubliksiz, morfologik oʻzgarmas grammatik xususiyatga ega boʻlgan soʻz sifatida taʼriflanishi mumkin. Undov soʻz gapda boshqa soʻzlar bilan sintaktik tuzilma hosil qilmaydi, morfologik vazifa bajarmaydi. U soʻzlovchining gap vaqtidagi ichki holatini aks ettiradigan va yetkazadigan soʻzdir. Shu oʻrinda undov soʻzlar qanday emotsiyani ifodalashiga koʻra, ijobiy va salbiy emotsiyani ifodalovchi undov soʻzlarga boʻlinadi.

아차, 아카사니, 어기, 여차, 울지, 우와, 참 singari undov soʻzlar ijobiy emotsiyani ifodalovchi undov soʻzlar qatoriga kiradi.

시, 아뽀싸, 아야, 아하,악, 알라, 앓, 애계, 애재,애해, 앵, 어마, 어머, 어뽀싸, 어어, 어일싸, 어허,어휴, 억, 영, 에, 에그,에끼, 에라, 에이, 에이그, 에잇, 에쿠, 에크, 에키,에헤, 에후, 앵, 앵이, 예,예라, 예이, 요런, 우, 움,이끼, 이야, 이키, 자, 제,쫓, 아뽀싸, 하하, 햄, 어뽀싸, 허허, 험, 헤 singari undov so‘zlar esa salbiy emotsiyani ifodalovchi undov so‘zlar qatoriga kiradi.

Ushbu undov so‘zlarni tahlil qilish natijasidi ham ijobiy, ham salbiy emotsiyani ifodalashda qo‘llasa bo‘ladigan undov so‘zlarga duch keldik.

아, 아아, 아이, 아이고, 야, 알라차, 어,어이구, 얼씨구, 하이고, 허, 호, 흥 ana shunday undov so‘zlar sirasiga kiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu ilmiy maqolada zamonaviy koreys tilida ijobiy va salbiy emotsiyani ifodalovchi undov so‘zlar tahlil qilib chiqildi. Olib borilgan tahlil natijalari yuzasidan xulosa chiqaradigan bo‘lsak, Emotsiya insonning yuz ifodasi, terga botishi, yuz rangining o‘zgarishi, shuningdek, til orqali namoyon bo‘lishi mumkin ekan. Bular orasida til inson emotsiyasini eng aktiv ravishda ifoda etuvchi vosita hisoblanishining guvohi bo‘ldik. Koreys tilida emotsiya undov so‘zlar, undov kesimlik qo‘shimchalari va emotsiyani bildiruvchi sifatlar orqali ifodalanar ekan. Emotsiyani ifodalovchi so‘zlar so‘zlovchining his-tuyg‘ularini ifodalash funksiyasi berilgan vaziyatdagi og‘riq, qiyinchilik, ko‘ngil qolishi, dovdirash, havotir, afsus, umidsizlik, nima qilishni bilmaslik, xursandchilik, mamnuniyat, faxrlanish, hayrat kabi his-tuyg‘ularni ifodalaydi. Shunga ko‘ra, undov so‘zlar ijobiy va salbiy emotsiyani ifodalovchi undov so‘zlarga bo‘linar ekan. Koreys tilida emotsiyani ifodalovchi gaplarni to‘g‘ri tuzish uchun ijobiy va salbiy emotsiyani ifodalovchi undov so‘zlarni ajratib olish lozim. Shundagina tuzilgan gap to‘g‘ri, koreys tili uslubida va chiroyli chiqadi. Talabalarga ham undov so‘zlarni ijobiy va salbiy emotsiyani ifodalovchi undov so‘zlarga ajratib o‘rgatishni taklif qilgan bo‘lar edik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Madaminova D. Koreys tilida undov gaplarning o'ziga xos xususiyatlari. Toshkent, 2014. - B.16.
2. 평 시. 한국어-중국어 감탄 표현의 대비 연구. 단국대학교 대학원, 2014.- B.14.
3. 이미지. 한국어 감탄 표현 교육 연구. - 부산:부경대학교, 2014.
4. 김진호. 외국어로서의 한국어학개론. - 서울: 도서출판 박이정, 2019.

INTERNET RESURSLAR

1. <https://en.dict.naver.com/#/main>
2. <https://krdict.korean.go.kr/rus>